



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MINORITAR AKSIYADORLAR HUQUQLARINING HIMOYASI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

Allanazarova Xavajon Axmedovna

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

e-mail: xavajonallanazarova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10215830>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-November 2023 yil

Ma'qullandi: 25- November 2023 yil

Nashr qilindi: 29-November 2023 yil

KEY WORDS

aksiyadorlik jamiyati, aksiyador, minoritar aksiyador, aksiyalar nazorat paketi, kuzatuv kengashi, minoritar aksiyadorlar qo'mitasi.

ABSTRACT

Maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida minoritar aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish yoritilib, bunda milliy va xorijiy tajribada mavjud minoritar aksiyadorlarning huquqiy himoya mexanizmlari aks ettirilgan. Shuningdek, korporatsiya faoliyatida maxsus vakolatli organlar faoliyatiga baho berilib, minoritar aksiyador qo'mitasining tashkil etilishi hamda uning faoliyati o'rganilgan. Xorij tajribasida minoritar aksiyador tushunchasi hamda ushbu fenomenning shakllanishi o'rganilishi mobaynida ayrim davlatlar qonunchiligida minoritar aksiyadorlar huquq va manfaatlari majoritar aksiyadorlar huquqlari bilan teng asosda ta'minlanishing usullari mavjud ekanligi o'rganildi. Nihoyat, milliy qonunchiligimizda ushbu turdagi hissadorlar huquq va manfaatlari himoyasi yuzasidan bir necha ustuvor vazifalar sanab o'tildi.

Korporativ huquqning rivojlanishi va himoya qilinishi mamlakat kelajagi va taraqqiyotida o'z o'rniga ega. **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi **"Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq faravonligi garovi"** nomli ma'ruzasida inson manfaatlarini ta'minlashda *iqtisodiyotimizning* yuksak sur'atlar bilan barqaror rivojlanishi ahamiyatli ekanligi ta'kidlangan bo'lib, uning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga 2022-yil 12-dekabrda Murojaatnomasida 2023-yildagi ustuvor yo'nalish sifatida erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Konstitutsiyada alohida o'rin egallashi zarurligi taklif qilingan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprelda "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni kapital bozorini zamonaviy standartlar asosida rivojlantirish, shuningdek, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning ham capital bozoridagi o'rni va ahamiyatini oshirish uchun xizmat qildi. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi

“2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirishga doir maqsadlar belgilangani muhimi ahamiyat kasb etmoqda.

Qonunchilik bazasini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz 2016-yilga nisbatan 2020-yil bo‘yicha Jahon banking biznesni yuritish shartlarini ifoda etadigan **“Doing business”** reytingida “Minoritar investorlarni himoya qilish” ko‘rsatkichi bo‘yicha 51 pog‘ona yuqoriladi[1]. Minoritar aksiyadorlarning huquq va manfaatlarining himoyalanganlik darajasi iqtisodiyotda bugungi kunning muhim ahamiyatga ega masalasi hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida minoritar aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish nafaqat mahalliy balki, xorijiy investorlarning ham investitsiya kiritish bilan bog‘liq qiziqishing ortishiga sabab bo‘ladi. Ozchilik aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish yurtimizda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish hamda aksiyadorlik jamiyatlariga investitsiyalarni keng jalb etishga bevosita ta‘sir etuvchi muhim omillardandir.

Ta‘kidlash lozimki, amaliyotda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimining faoliyati yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda korporativ munosabatlarda ko‘p jihatdan davlatning dominantlik roli kamaymayotgani boisidan ham minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishni takomillashtirish kabi ustuvor vazifalarni hal etishni kechiktirmoqda.

Ma‘lumki, minoritar aksiyadorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishning asosiy mexanizmlaridan biri aksiyadorlik jamiyatlari kuzatuv kengashi tarkibida **“mustaqil a‘zo”**larning mavjudligidir. Qonunchilikka ko‘ra, respublika fond birjasi kotirovkasiga kirgan aksiyadorlik jamiyatlarining o‘z nazorat kengashi tarkibida kamida bir nafar mustaqil a‘zoning bo‘lishi shart [2].

Mustaqil a‘zo xorijiy amaliyotda aslida mustaqil direktor deb atalgan bo‘lib, (ingl. Independent Director) bu lavozim dastlab yigirmanchi asrning 80-90-yillarida Buyuk Britaniya va AQShda taniqli korporatsiyalarning bir qator mojaroli bankrotlik holatlaridan keyin paydo bo‘lgan [3]. Moliyaviy ko‘ngilsizliklar sababi kompaniya rahbariyatining insofsiz harakatlari va direktorlar kengashi a‘zolarining korrupsiyaga aralashgani bo‘lgan. Shundan keyin yirik investorlar (aholining pul mablag‘larini jalb etuvchi pay, investitsiya, trust va boshqa fondlar va kompaniyalar) kompaniyalarning asosiy kuzatuvchi organi tarkibiga qarorlar qabul qilishda xolis va obyektiv harakat qiluvchi mustaqil direktorlarni kiritish taklifini berishgan. Ularning funksiyalari direktorlar kengashi qarorlari va ularning ijrosini chetdan doimiy monitoring qilish hamda barcha guruh **aksiyadorlarining manfaatlarini himoyalash** etib belgilab qo‘yilgan. Korporativ boshqaruvning eng ilg‘or amaliyotiga muvofiq, mustaqil direktor sifatida o‘z nuqtai nazarini shakllantirish uchun yetarli professionallik, tajriba va mustaqillikka ega bo‘lgan, aksiyadorlik jamiyati ijroiya organi, alohida aksiyadorlar guruhlari yoki boshqa manfaatdor tomonlar ta‘siridan mustaqil ravishda o‘z xolis va vijdonli fikrlarini aytishga qodir bo‘lgan shaxs e‘tirof etiladi. Direktorlar kengashida (kuzatuv kengashida) **mustaqil direktorlarning** mavjudligi kengashning samarali tuzilmasini shakllantirishda, shuningdek, kompaniyaning samarali korporativ boshqaruv tizimini barpo etishda eng muhim elementlardan biri hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunning 76-

moddasiga muvofiq, quyidagi shaxs kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi deb e'tirof etiladi:

- so'nggi uch yil mobaynida jamiyatda va (yoki) uning affillangan shaxslarida ishlamagan shaxs;

- jamiyatning aksiyadori va (yoki) uning affillangan shaxsining ta'sischisi (aksiyadori, ishroqchisi) bo'lmagan shaxs;

- jamiyatning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijoz va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lmagan shaxs. Bunda qaysi mijoz va yetkazib beruvchi bilan eng kam ish haqining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'shalar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

- jamiyat va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lmagan shaxs, bundan kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan hollar mustasno;

- jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning eri (xotini), ota-onasi (farzandlikka oluvchisi), farzandi (farzandlikka olingan bolasi), tug'ishgan va o'gay akasi (ukasi) hamda opasi (singligi) bo'lmagan shaxs;

- davlat boshqaruv organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lmagan shaxs.

Kuzatuv kengashi a'zolarining mustaqilligi mezonlari Korporativ boshqaruv kodeksining 19-bandida ham keltirilgan. Biroq, e'tibor qaratish lozimki, kodeksda ko'rsatilgan mustaqillik mezonlari qonunda o'rnatilgan mezonlardan farqlanadi. Bu yerda tabiiy savol tug'iladi - aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashining a'zosi qaysi mustaqillik mezonlariga javob berishi kerak degan savolga bizningcha, uch yechim bo'lishi mumkin.

Birinchi, agar aksiyadorlik jamiyati Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etayotgan bo'lsa, lekin uning aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag'iga kiritilmagan bo'lsa - ushbu aksiyadorlik jamiyati kodeksda ko'rsatilgan mustaqillik mezonlariga amal qilishi kerak.

Ikkinchi, agar aksiyadorlik jamiyati aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag'iga kiritilgan bo'lsa, lekin u Korporativ boshqaruv kodeksining tavsiyalariga rioya etish majburiyatini olmagan bo'lsa - ushbu aksiyadorlik jamiyati qonunda o'rnatilgan mustaqillik mezonlariga amal qilishi lozim.

Uchinchi, agar jamiyat Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etayotgan hamda uning aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag'iga kiritilgan bo'lsa - u qonunda o'rnatilgan mustaqillik mezonlariga amal qilishi kerak, chunki kodeks tavsiyaviy xarakterga ega, qonun esa - majburiy.

Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi sifatida saylanishi uchun quyidagi shaxslarni taklif qilish tavsiya etiladi:

- professional jamiyatlar yoki tashkilotlarning a'zolari bo'lgan shaxslar;

- oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasalarining xodimlari;

- ushbu aksiyadorlik jamiyati bilan bog'liq bo'lmagan (affillangan bo'lmagan) boshqa tashkilot va korxonalarining rahbarlari hisoblangan, korporativ qonunchilikni biladigan hamda korporativ boshqaruv usullari va tamoyillaridan xabardor bo'lgan shaxslar;

- so'nggi uch yil mobaynida nafaqada bo'lgan, ushbu aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlik jamiyatida ko'p muddat ishlagan va korxonani boshqarish sohasida katta tajribaga ega bo'lgan

shaxslar.

Kuzatuv kengashi a'zoligiga mustaqil nomzodni ko'rsatish to'g'risidagi taklifni quyidagilar kiritishga haqli:

– davlat yoki xo'jalik birlashmasining vakili – davlat yoki xo'jalik birlashmasining ulushi ustun bo'lgan jamiyatlarda;

– aksiyadorlik jamiyati ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador;

– boshqa minoritar aksiyadorlar – minoritar aksiyadorlar qo'mitasi nomidan (agar bunday qo'mita tuzilgan bo'lsa) yoki mustaqil nomzodlarni ko'rsatishda hamda ularni saylash uchun ovoz berishda aksiyadorlarning birgalikdagi pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik bitimini tuzish asosida. Mustaqil nomzodni ko'rsatish chog'ida undan uning roziligi va mustaqillik mezonlariga muvofiqligi to'g'risidagi arizasini olish, shuningdek, u haqdagi batafsil ma'lumotlarni (masalan, F.I.SH., tug'ilish sanasi va joyi, fuqaroligi, asosiy va qo'shimcha ma'lumoti, mehnat faoliyatiga oid ma'lumotlar, yaqin qarindoshlari haqida ma'lumotlar, nomzodning boshqa yuridik shaxslar ustav kapitalida bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi haqidagi ma'lumotlar va h.k.) taqdim qilish tavsiya etiladi. Ushbu ma'lumotlar mustaqil nomzodni ko'rib chiqish paytida kuzatuv kengashi majlisining materiallariga hamda uni saylash paytida aksiyadorlar umumiy yig'ilishi materiallariga kiritilishi mumkin [3].

Mustaqil nomzodlar qonunchilikda, jamiyat ustavida va uning boshqa ichki me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda saylanadi. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar jamiyat kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi. Agar jamiyat ustaviga ko'ra, kuzatuv kengashi tarkibiga bir nafar mustaqil a'zo bo'lishi kerak bo'lsa-yu, lekin aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berishda mustaqil nomzod kuzatuv kengashi tarkibiga saylanishi uchun yetarlicha ovoz to'play olmasa, unda nima qilish lozimligi masalasi qonunchilik bilan tartibga solinmagan. Bunday vaziyatda jamiyat ustavida mustaqil nomzodni saylash tartibini belgilab beruvchi alohida normani tadbiiq etishni tavsiya etamiz. Masalan: "kuzatuv kengashi a'zoligiga mustaqil nomzod, u to'plagan ovozlar sonidan qat'i nazar, saylangan deb hisoblanadi (agarda u "0" ovoz to'plamagan bo'lsa). Agar mustaqil nomzodlar ikki yoki undan ortiq bo'lsa, unda eng ko'p ovoz to'plagan mustaqil nomzod kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi [4].

Shuningdek, minoritar aksiyadorlarning huquq va manfaatlarini buzganlik uchun yuridik javobgarlikning mavjudligi ularning davlat tomonidan himoya qilinishini ham anglatib, aksiyadorlarni himoya qilishning asosiy yo'llaridan biri hisoblanadi. Fikrimizning bayoni sifatida, yuridik javobgarlik bu ijtimoiy javobgarlikning alohida turi bo'lib, u davlat, huquq normalari, fuqarolar va ularning birlashmalari majburiyatlari va qonunga xilof xulq-atvori bilan uzviy bog'liqdir. Binobarin, davlat huquq normalarini qabul qilar ekan, subyektlar xohish-irodasidan qat'i nazar, ularning yuridik javobgarligini nazarda tutishini aytishimiz mumkin [5].

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 111-moddasida aksiyadorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatlari mustahkamlangan.

Unga ko'ra, davlat aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kafolatlaydi. Biroq, aksiyadorlik jamiyatining xo'jalik faoliyatiga va boshqa faoliyatiga davlat organlarining aralashishiga yo'l qo'yilmaydi. Davlat organlarining qonunga xilof harakatlari

ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin. Davlat aksiyador sifatida boshqa aksiyadorlar bilan bir qatorda ushbu Qonunda belgilangan teng huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Shuningdek, Qonunga muvofiq aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilishning quyidagi institutlari mavjud:

- qonunda belgilangan va jamiyat ustavida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish orqali jamiyatning boshqaruv organlari;
- qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari va fond birjalari;
- qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining ixtiyoriy birlashmalari;
- sug'urta tashkilotlari;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi;
- auditorlik tashkilotlari;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan himoya qilinadi [6].

Aksiyadorlar va qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan nizolar sud tartibida hal etiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi [7].

O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi Bosh direktorining 2015-yil 10-avgustdagi 2015-09-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Aksiyadorlik jamiyatida minoritar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyat ko'rsatishi tartibi to'g'risida"gi Nizom, aytish mumkinki, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishda ustuvor ahamiyatga ega.

Ushbu Nizomga asosan, minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida jamiyatda ularning orasidan qo'mita tashkil etilishi mumkin. Qo'mitani tashkil etish mumkinligi jamiyatning ustavida nazarda tutilgan bo'lishi zarur. Aksiyadorlar (aksiyador) jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin o'ttiz kundan kechiktirmay, agar jamiyat ustavida bundan kechroq muddat belgilanmagan bo'lsa, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga qo'mita tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflar ko'rsatishga haqli. Aksiyadorlar (aksiyador) qo'mitaga o'zlari ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay o'zgartishlar kiritishga haqli.

Qo'mita a'zolarini saylash to'g'risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan bir yil muddatga qabul qilinadi. Qo'mita tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin. Qo'mitaning a'zolarini saylashda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hozir bo'lgan va jamiyat kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatmagan yoxud aksiyadorlarning o'tkazilayotgan umumiy yig'ilishida kuzatuv kengashiga nomzodlari saylanmagan aksiyadorlar ishtirok etadi. Jamiyat boshqaruvi a'zolari va direktori, shuningdek jamiyat kuzatuv kengashi hamda, taftish komissiyasi a'zolari (taftishchisi) jamiyatning qo'mita a'zolari tarkibiga kiritilishi mumkin emas. Qo'mita a'zolarining soni jamiyat ustavi bilan belgilanib, uch kishidan kam bo'lmasligi, shuningdek umumiy soni toq sondan iborat bo'lishi lozim. Qo'mitaning raisi ushbu qo'mita tarkibidan uning a'zolari tomonidan ko'pchilik ovozi bilan saylanadi. Qo'mita faoliyatini tashkil etish maqsadida jamiyat ijroiya organi rahbari qo'mita a'zolariga ish joyini, kompyuter uskunasi, seyfni,

telefon yoki faksimil aloqasini ajratgan tarzda zarur mehnat sharoitini yaratib berishi shart.

Milliy qonunchiligimizni rivojlantirishning muhim shakllaridan biri shubhasiz, xorijiy mamlakatlarining tajribasini o'rganish va uni milliy qonunchilikka tadbiq etishdir.

Minoritar aksiyadorlar, ko'pchilik aksiyadorlardan farqli o'laroq, oz sonli aksiyalarga egalik qiladilar, ya'ni ular aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmaydi. Qozog'iston qonunchiligiga asosan, barcha aksiyadorlar qonuniy ikki toifaga bo'linadi: yirik (shu jumladan, nazorat paketini ushlab turgan) va minoritar [8].

Yirik aksiyador – aksiyadorlik jamiyatining ovoz beruvchi aksiyalarining 10 yoki undan ortiq foiziga (birgalikda) egalik qiluvchi aksiyador yoki ular o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida harakat qiluvchi bir necha aksiyadorlar. **Minoritar aksiyador** – aksiyadorlik jamiyatining ovoz beruvchi aksiyalarining 10%idan kamiga egalik qiluvchi aksiyador.

Qozog'iston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari tog'risida"gi Qonuni 14-moddasi 1-bandiga ko'ra, minoritar aksiyadorlar, yirik aksiyadorlar bilan teng huquqli:

- ushbu qonun va kompaniya ustavida nazarda tutilgan tartibda kompaniya boshqaruvida ishtirok etish;
- dividendlar olish;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki kompaniya ustavida belgilangan tartibda kompaniya faoliyati, shu jumladan kompaniya moliyaviy hisobotlari to'g'risida ma'lumot olish;
- qimmatli qog'ozlarga egalik huquqini tasdiqlovchi kompaniya reestri yoki nominali egasidan bayonnomalar olish;
- kompaniya aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida kompaniya direktorlar Kengashiga saylash uchun nomzodlar taklif etish;
- kompaniya organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarni rad etish;
- kompaniyaga uning faoliyati haqida yozma so'rovlar bilan murojaat qilish va kompaniyaga murojaat qilgan kundan boshlab o'ttiz kun ichida asosli javoblarni olish;
- kompaniya tugatilgan taqdirda mol-mulkning bir qismini olish;
- ushbu qonunda belgilangan tartibda o'z aksiyalariga aylantirilgan aksiyalarning yoki kompaniyaning boshqa qimmatli qog'ozlarini oldindan sotib olish.

Qozog'iston qonunchiligiga asosan, majoritar aksiyadorlar ega bo'lgan huquqlarga minoritar aksiyadorlar ham yozma shartnoma asosida birlashib, yirik aksiyador maqomini olish orqali ega bo'lishlari mumkin [9].

Minoritar aksiyadorlarning jamiyat faoliyatida ishtirok etishining o'ziga xos jihatlari mavjud. Minoritar aksiyadorlar kichik aksiyalar paketini sotib oladilar, lekin, ular kompaniyani boshqarishda faol ishtirok etmaydi. Odatda, minoritariylar dividendlar olish yoki keyinchalik aksiyalarni yanada manfaatli realizatsiya qilish maqsadini ko'zlaydi. Ko'pgina davlatlarda, ayniqsa, Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarda aksiyadorlarning mustaqil reestrini yuritish amaliyoti mavjud. Bundan tashqari, xat jo'natishdan ko'ra, umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida ommaviy axborot vositalari orqali e'lon berish keng tus olgan [10].

Bir qancha davlatlarda pochta orqali ovoz berishga avvaldan yo'l qo'yilmaydi hamda ovoz berish uchun berilgan ishonchnomaga nisbatan uni rasmiylashtirish talab etiladi. Ayrim mamlakatlarda esa aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi boshlanishi oldidan aksiyalarni muayyan muddatga depozitga topshirish tartibi joriy qilingan bo'lib, bu aksiyadorlarning

imkoniyatlarini qisqartirishga, nazorat paketiga ega mayda aksiyadorlarning huquqlari buzilishiga olib kelgan. Barcha aksiyadorlarning tenglik tartibi yuzasidan olib borilgan o'rganish natijalariga qaraganda, "bitta aksiya – bitta ovoz" qoidasi Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Litva, Makedoniya, Polsha, Rossiya, Ruminiya, Sloveniya va Chexiyada bir xilda joriy qilinmoqda. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum Bolgariya, Polsha va Sloveniyada mavjud emas, Albaniyada 51 foizni, Rossiyada 50 foizdan ziyodni, o'rganilgan boshqa davlatlarda 50 foizni, Chexiyada esa 30 foizni tashkil etadi. Minoritar, ya'ni qo'lida aksiyasi kam aksiyadorlar kuzatuv yoki direktorlar kengashi a'zolarini saylash huquqi Polshadan tashqari boshqa o'rganilgan mamlakatlarda mavjud emas. Bundan tashqari, Bolgariya, Vengriya, Litva, Makedoniya, Rossiya, Ruminiya, Sloveniya va Chexiyada aksiyadorlar yangi chiqarilgan aksiyalarni g'ayriixtiyoriy ravishda sotib olish huquqiga ega, xuddi shu davlatlarda (Polsha ham qo'shilgan holda) aksiyadorlarga menejment harakatiga nisbatan da'vo qilish huquqi berilgan [11].

Yuqoridagilarga asosan shuni aytishimiz mumkinki, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishda qo'mitaning shaxsiy tarkibini shakllantirishda talabgorlarning malakasini, fond bozoridagi ish tajribasini, shuningdek boshqa jiddiy omillarni hisobga olish zarur degan fikrdamiz. Bundan tashqari, qo'mita yig'ilishlari minoritar aksiyadorlar tomonidan muhokama uchun takliflar kiritilishiga qarab har chorakda kamida bir marta o'tkazilishi, qo'mita faoliyati haqidagi axborotni jamoatchilikka yetkazishni yaxshilash, oshkoralikni oshirish hamda minoritar aksiyadorlar bilan o'zaro ta'sirlashuvni soddalashtirish, ularni qiziqtiradigan masalalarni aniqlash uchun mavjud muammolarni muhokama qilish maqsadida aksiyadorlik jamiyatida qo'mitaning saytini yoki saytdagi sahifasini ochish, shuningdek, jamiyat boshqaruviga oid masalalarni hal etishda jamiyatning navbatdagi va navbatdan tashqari yig'ilishlarida minoritar aksiyadorlarga elektron shaklda yoki videokonferensaloqa tizimda yoxud onlayn tarzda ovoz berish amaliyotini joriy etilishi maqsadga muvofiq.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi., T.: "Adolat" NMIU., 2018-yil. – 76 b;
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi., 23.01.2020-y., 03/20/603/0071-son;
3. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi., 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son;
4. "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi., 15.01.2021-y., 03/21/666/0032-son;
5. "Aksiyadorlik jamiyatida minoritar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyat ko'rsatishi tartibi to'g'risida"gi nizom. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.09.2019-y., 10/19/2712-1/3783-son;
6. Rahmonqulov H.R., Gulyamov S.S. Korporativ huquq. – Toshkent: TDYU, 2007. – 512 b;
7. Fuqarolik huquqi.: Darslik. I qism/ Mualliflar jamoasi.Prof. O.Oqyulovning umumiy tahriri ostida. – T.:TDYU nashriyoti, 2016. – 128 b;
8. Отахонов Ф. Корпоративное управление в Республики Узбекистан и некоторые проблемы в данной сфере. – 84 с;
9. Котова М.Д. Наблюдательный совет акционерных обществ: избрание, компетенция, ответственность. – Ташкент: ТГЮИ, 2004. – 73 с.

10. Berdikulov M., Raximov M.//Improvement of minority shareholders' rights' protection under business legislation/Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash: iqtisod va huquq mavzusigi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to'plami, Toshkent: TDYU, 2015. – 102 b;
11. Фалеев В.В. Миноритарные акционеры: правовой статус, права и их осуществление, Автореферат., Москва-2009. – 25 с

